



AXBOROT ALMASHINUVINING O`ZIGA XOSLIGI

Dadaxon Raimboyev

Qoraqalpoq davlat universiteti
qoraqalpoq filologiya va jurnalistika
fakulteti 4-bosqich talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6969174>

ARTICLE INFO

Received: 28th June 2022

Accepted: 01st July 2022

Online: 02nd July 2022

KEY WORDS

*globa, interfaol,
tezkorlik,
raqamlashtirish, axborot*

ABSTRACT

*Ushbu maqola axborot va uni xalqaro miqyosida
almashinishining o`ziga xosligi haqida yozilgan*

Internetdan foydalanish imkoniyati bugungi kunda o'tgan asrda huddi kutubxonalardan foydalanish imkoniyatini singari madaniy huquq tamoyilining talabi sanaladi va shu sabab ham BMT bosh assambiliyasining yig'ilishida internetdan foydalanish insonning o'z fikrini bildirish uchun zarur instrument bo'lib aholining o'z huquqlaridan foydalanish imkoniyatini yaratadi deb ta'kidlangan. Aholi uchun bundan nafaqat internet orqali 12 muhitning o'zida turli millat vakillarining fikr va axborot almashinuvini qayta ko'rish nazarda tutiladi. Ushbu jarayonlarni yanada o'rganish aholining madaniy resurslaridan qanchalik umumiy unumli foydalanish borasida fikr yuritishga undaydi. Bunda albatta biz internetdagi ma'lumotlarning bu borada qanchalik muhim imkoniyatini ta'minlashi borasida foydalanishimiz kerak. Bunda turli xil texnik va til nuqtai nazaridan to'siqlar bo'lishimiz mumkin ammo mutaxassislar bu jarayon borasida ham ishlab bugungi kunda axborotni turli tillarda berish

uchun til imkoniyatlari nuqtai nazaridan takomillashtirilmoqda va bu o'z navbatida integratsiya jarayonlarda madaniy o'ziga xoslikni saqlab qolish imkonini beradi. Har qanday kommunikatsiya singari muhitdagi axborot almashinuvini jarayoni ham bevosita va bilvosita bo'lishi mumkin. Internet olamida ma'lumot almashinuvini holati bilvosita kommunikatsiya jarayoniga ta'alluqli bo'lib uning imkoniyatlari internet imkoniyatlari singari kengdir. Jahon ommaviy axborot vositasining internetda taraqqiy topishining o'tgan bosqichi internet jurnalistikani alohida axborot faoliyat turi sifatida belgilash va unga xos xususiyatlarini ajratish imkonini beradi. Internetning ommaviy axborot vositasi sifatidagi o'ziga xos jihatlari sifatida quyidagilarni talab etish mumkin. Tarmoqning global miqyosda ega ekani, ma'lumotlar uzatishdagi tezkorlik ish jarayonining markazlashtirilmagani, hamma uchun ochiqligi, foydalanuvchi tomonidan nazorat qilinishi, iqtisodiy



jihaddan qulaylik. Aynan mazkur jihatlari undagi auditoriyani xarakterlaydi deyish mumkin. Internet bilan bog'liq tushunchalar qatorida doimiy ravishda biz globallik, tezkorlik, raqamlashtirish, interfaol kabilarni nazarda tutamiz content ma'nosida ham aynan mazkur tushunchalar uning xususiyatlarini aks ettiradi deyish mumkin. Internet muhitida berilayotgan ma'lumotlar ushbu ko'rsatkichlarga ega bo'lmagan taqdirda ularning to'liq talablariga javob bermaydi. Globallik bu axborot va axborot oluvchilarning global miqyosiga ega ekani bilan izohlansa, interfaollik o'z navbatida auditoriya va ommaviy axborot vositasi o'rtasida o'zaro ikki tomonlama muloqotning mavjudligini nazarda tutadi. Globallik esa boshqa hech biri OAV da mavjud bo'lmagan jihat sanalib bir sahifa ortida mislsiz ko'p manbalarga chiqish imkoniyatini ifodalaydi. Web-sahifaning arxivlash tirilgan resurs sifatida raqamli shaklda nashrining ancha oldingi ma'lumotlari

bilan tanishish imkoniyati tushunchalar sanaladi. Aynan mazkur xususiyatlar internetdan foydalanuvchilar sonining yildan-yilga ortib borishiga sabab bo'ldi. Jahon jihatlari bo'lishiga qaramay internet-jurnalistika bir qancha xususiyatlarini an'anaviy ommaviy axborot vositasi turlaridan olgan bosma nashrlaridan tashkiliy jihatlari radiodan tezkorlik jonli efirni TV jurnalistikadan esa ko'rgazmalik va tasviriy imkoniyatlarni o'zlashtirgan. ammo shunga qaramay raqamli texnologiyalardan foydalanish dagi nomutanosiblik axborot olish borasida tengsizlik keltirib chiqaradi bu esa quyidagi holatlarda namoyon boladi ma'lumot olish jarayonida dunyo aholisi tengsizlikka zamonaviy axborot muhitiga qarshi kirish borasida davlat miqyosida tengsizlik axborot almashinuvi jarayonida ishtirok boyicha hududiy miqyosida tengsizlik va hatto internetdan ma'lumot olish borasida oila ichida tengsizlik mavjud